



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Kamolova Kamola Akmal qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari ingliz filalogiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

Telefon: +998940964272

kamolovakamola2307@gmail.com

Ilmiy rahbar: Saydamatov Ikromjon Nazirovich

Telefon: +998977861209

Ikromjonsaydamatov@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15176546>

Annotatsiya: Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rgatish ta'lim jarayonining eng ahamiyati qismiga aylanmoqda. Dunyo miqyosida raqamli texnologiyalarning rivojlanayotganligi sababli chet tillarini o'rganish va uni boshqalarga o'rgatishning yangi metodlari yaratilmoqda va yuqori natijalarga erishilmoqda. Innovatsion ta'lim texnologiyalari, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida dars o'tish, til o'rganuvchilar uchun juda ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning samaradorligi va ularning afzalliklari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Xorijiy tillarni o'qitish, innovatsion ta'lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv o'qitish, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim, individual yondashuv, ta'lim platformalari.

Abstract: In the current era of globalization, teaching foreign languages is becoming the most important part of the educational process. Due to the development of digital technologies worldwide, new methods of learning and teaching foreign languages are being created and high results are being achieved. Innovative educational technologies, in particular, teaching based on information and communication technologies (ICT), are creating very wide opportunities for language learners. This article will highlight the effectiveness of innovative technologies used in teaching foreign languages and their advantages.

Keywords: Foreign language teaching, innovative educational technologies, information and communication technologies, interactive learning, mobile applications, artificial intelligence, distance learning, individual approach, educational platforms.

Аннотация: В современную эпоху глобализации обучение иностранным языкам становится важнейшей частью образовательного процесса. Благодаря развитию цифровых технологий во всем мире создаются новые методы изучения иностранных языков и обучения им других и достигаются высокие результаты. Обучение на основе инновационных образовательных технологий, в частности информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), создает широкий спектр возможностей для изучающих язык. В данной статье освещается эффективность инновационных технологий, используемых при обучении иностранным языкам, и их преимущества.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ключевые слова: Преподавание иностранных языков, инновационные образовательные технологии, информационно-коммуникационные технологии, интерактивное обучение, мобильные приложения, искусственный интеллект, дистанционное образование, индивидуальный подход, образовательные платформы.

Bugungi kunda ta'lim tizmida, ayniqsa, xorijiy tillarni o'qish va o'qitishda axbrot texnologiyalarining o'rni juda ham yuqori cho'qqiga chiqmoqda. Chunki, innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan tillarni o'rgatish ancha qulay, dars jarayonlarini qiziqarli qilishga va diqqatni o'ziga tortish uchun yordam beradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytirishga va yaqinlashtirishga ham o'z hissasini qo'shadi. Xususan:

Интерактив ta'lim platformalari (Duolingo, Quizlet, Kahoot, Memrise, Nearpod, Flip) – talabalarni qiziqtirgan holda o'rgatish imkoniyatini yaratadi.

Onlayn video darslar (YouTube, Coursera, EdX) – o'quvchilarni nafaqat til bilimi, balki madaniy bilimlar bilan ham boyitadi.

Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar (ChatGPT, Grammarly, Gemini) – o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlab, ularning o'rganish jarayonini tezlashtiradi.

Xorijiy tillarni o'qitishda AKTning roli

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida til o'rganishning interaktiv usullarini qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi. Bunda quyidagilar ajralib turadi:

Virtual sinflar orqali masofaviy ta'lim jarayonini tashkil qilish mumkin va bu orqali masofadan turib ham tillarni o'rganish va o'rgatish imkonini kengayadi.

Mobil ilovalar bilan esa o'quvchi xorijiy tillarini bimalol istagan vaqtida va o'zi uchun qulay bo'lgan sharoitda foydalanishi va tillarni o'rganishi mumkin.

Multimediali ta'lim materiallari – darsliklar, audio va video materiallar yordamida o'rganish jarayonini boyitadi va yanada samarali qiladi.

Memrise, HelloTalk va Tandem kabi mobil ilovalar o'quvchilarga til ko'nikmalarini yo'lda mashq qilish imkonini beradi. Ushbu ilovalar ko'pincha nutqni aniqlash, suhbat amaliyoti uchun chatbotlar va so'z boyligini oshirish uchun flesh-kartalarni o'z ichiga oladi.

iTalki va ConversationExchange kabi veb-saytlar turli tillarda so'zlashuvchilar o'rtasida til almashish bo'yicha hamkorlikni osonlashtiradi. Bu o'quvchilarga ona tilida so'zlashuvchilar bilan gaplashishni mashq qilish, ularning



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

til ko'nikmalari haqida fikr-mulohazalarni olish va madaniy kompetentsiyani rivojlantirish imkonini beradi.

SayBot va Busuu kabi sun'iy intellektga asoslangan til o'rganish platformalari har bir talabaning kuchli va zaif tomonlariga asoslangan shaxsiy fikr-mulohazalar, moslashtirilgan dars rejaları va moslashtirilgan o'rganish yo'llarini taqdim etadi. AI shuningdek, til topshiriqlari va baholashlarni avtomatlashtirilgan baholashni osonlashtirishi mumkin.

Innovatsion usullarni qo'llashning bir qancha afzalliklari mavjud.

Xususan:

Individual yondashuv – har bir o'quvchiga ularning ehtiyojlari va o'rgana olish darajasiga moslashib, ularga ham yetarlicha bilim berish mumkin.

Qiziqarli o'rganish – o'quvchilar darslarda faolroq va kreativroq ishtirok etadi.

Tezkor fikrlashni rivojlantirish – turli xil topshiriqlar orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi, xotira yaxshilanadi va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham rivojlanadi.

Globalashuv-xorijiy tillarni bilish xalqaro munosabatlarda, shuningdek biznesda xorijiy kompaniyalar bilan muloqot qilish va ta'limda muvaffaqiyatli bo'lish va yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish: Chet tillarini bilish xorijiy universitetlarga kirish, xalqaro tanlovlarda ishtirok etish va samarali yo'llarini ham tadbiiq qilish uchunni rivojlantiradi.

Sayohat qulayligi-sayohat qilishda xorijiy tillarni bilish chet elliklar bilan muloqot qilish va madaniy aloqalarni yaxshilashga yordam beradi.

Keng qamrovli ma'lumotlar manbai-sohamiz uchun kerakli va asosiy ma'lumotlarning ko'p qismini xorijiy tillarda yozilgan manbalardan topishimiz mumkin. Bugungi kunda chet tilini bilish zarurati ko'plab sohalarda ko'rinib turibdi. Talabgorlarning rezyumelarini chet tilini bilish darajasi haqidagi band, albatta, mavjud bo'ladi.

Chet tillarini bilish ijtimoiy makonda muvaffaqiyatli joylashishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, ingliz tilida texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish uchun ba'zi metodologik usullar mavjud va ular quyidagilar:

1. STEM va STEAM ta'lim:



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

STEM (Science, Technology, Engineering, va Mathematics) yoki STEAM (STEM + Arts) bunda talabalar o'rgangan bilimlarini tajribadan o'tkazadilar va malakaga ega bo'ladilar.

2.Adaptive Learning Platformalari:

Texnologiyadan foydalangan ta'lim platformalari, har bir talabaning o'zlashtirilgan ta'lim yo'nalishiga mos keluvchi darslar tuzishda va o'rganish jarayonlarini adaptatsiya qilishda yordam beradi.

3.Blended learning:

Ushbu o'qitish metodi an'anaviy metod bilan zamonaviy o'qitish metodlarini bir qilib qo'shilishi hisoblanadi. Bu usul talabalar uchun interaktiv darslar, online resurslar, virtual laboratoriyalar va traditsioniy darslarni jamlash orqali o'rganishni ta'minlaydi.

4.Flipped classroom modeli:

Flipped classroom modeli traditsioniy metodni o'zgartiradi, bunda talabalarning o'zlarining o'qitish metodlari orqali o'rganadilar, video darslar va materiallarni o'zlari tayyorlashadi dars jarayonida savol-javob muhokamalar olib boradilar.

5.Collaborative learning:

Talabalarning hamkorlik qilishni yaxshi bilishga o'rgatadi, online platformalarda forumlar, chatlar va jamoatlar orqali o'z fikrlarini ulashishga va muhokama qilishga o'rgatadi.

6.Assessment Technologies:

Bunda talabalarning o'zlashtirishi online testlar va savol-javoblar orqali aniqlanadi, avtomatik baholash va o'zlashtirishda yordam beradi.

Bu metodologik usullar texnologiyadan foydalangan ta'limning sifatini oshirish, o'rganaish jarayonlarini samarali qilish va innovatsion g'oyalar o'rganish uchun talablarga katta imkoniyatlar yaratishda yordam beradi.

Amaliyotda qo'llaniladigan texnologiyalar

Duolingo va Memrise kabi ilovalar til o'rganish jarayonini gamifikatsiya orqali qiziqarli qiladi Zoom, Microsoft Teams kabi dasturlar esa masofaviy ta'limni tashkil etishda yordam beradi.

ChatGPT muloqotni rivojlantirish va yozma topshiriqlarni to'g'rilashda yordam beruvchi dastur hisoblanadi.

Google Translate va Grammarly – til o'rganish jarayonini tezlashtirish va aniqligini oshirish uchun vositalar



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quv jarayonini soddalashtiradi, uni yanada samarali va qiziqarli qiladi. Kelajakda ushbu texnologiyalarni yanada rivojlantirish va ta'lim tizimiga keng joriy etish o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizov, B. (2021). Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. Toshkent: O'qituvchi.
2. Qodirov, D. (2022). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Karimova, N. (2020). Interaktiv o'qitish usullari. Samarqand: Ma'rifat nashriyoti.
4. Brown, H. D. (2014). Principles of Language Learning and Teaching (6th ed.). Pearson Education.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2016). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
6. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching (5th ed.). Longman.
7. Til o'qitishda texnologiya integratsiyasi bo'yicha kasbiy rivojlanish: muammolarni hal qilish va ilg'or tajribalarni ilgari surish. Teaching Languages with Technology Journal, 10(4), 205-220.
8. Toshpulatova, F. . (2024). XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLAR. Евразийский журнал академических исследований, 4(7 (Special Issue), 235–236.